



DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASI

Rahmonova Dilnoza Toshmirzayevna

Annotatsiya. Dasturiy vosita yaratishning asosiy maqsadi va vazifalari — o‘quv jarayonini samarali qo‘llab-quvvatlash va yaxshilash, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘qitish metodlarini modernizatsiya qilish va talabalarga interaktiv, shaxsiylashtirilgan o‘rganish tajribasini taqdim etishdir. Dasturiy vosita, ayniqsa, raqamli ta’limda, o‘qituvchilar va talabalar uchun qulayliklar yaratadi. Odatda, axborot vositalarini shakllantirish foydalanuvchi sub’yektlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda shu kunga qadar to‘plangan va nazariy jihatdan olinadigan axborot vositalaridan foydalanib amalga oshadi. Insoniyat azaldan turli ixtisoslashtirilgan kutubxonalar, arxivlar va boshqa turdagi turli xil ma’lumot fondlarini shakllantiradi. Bugungi axborotlashtirish davrida, ushbu manbalar, axborot vositalari omborlari elektron shaklga o‘tkaziladi, ya’ni ombordagi ma’lumotlar raqamlashtiriladi hamda ushbu ixtisoslashtirilgan ma’lumotlarni saqlash, qidirish va qayta ishlash uchun elektron axborot tizimlari yaratiladi.

Kalit so'zlar: Sun’iy intellekt, virtual haqiqat, matnli dasturiy vosita, diagrammalar, eskizlar, jadvallar, audio ta’limiy dasturiy vositalar

Hozirgi paytda dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalarini yaratish bilan bog‘liq yo‘nalish tez sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Dasturiy vosita yaratishning asosiy maqsadi — talabalarni ta’lim jarayonida faollashtirish, ularning bilimlarini oshirish, shuningdek, o‘qitishning samaradorligini yuqori darajaga ko‘tarishdir. Bunda dastur, talabalarning o‘qish uslublariga va ehtiyojlariga mos ravishda o‘quv materiallarini taqdim etishi va baholashi kerak.



Dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta'minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Metodik talablarga quyidagilar kiradi: aniq o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ma'lum bir faning o'ziga xosligini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari o'zaro bog'liqliligi, o'zaro aloqadorligi, turli tumanligi, amalga oshirilishi.

Dasturiy vositalar – o'quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o'zaro bog'liqligiga tayangan holda qurilishi.

Dasturiy vositalar o'quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko'rinishida ta'minlashi. Fanlararo mantiqiy o'zaro bog'liqlikning hisobga olinishi.

Dasturiy vositalarda ta'lim oluvchiga o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirganligini turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi.

Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-rertsertiv), tafakkur (tushunchaviy-nazariy, ko'rgazmali-amaliy), diqqati (qat'iyliligi, boshqaga ko'chishi), motivatsiya (ishlashda faol shakllari, yuqori darajada ko'rgazmalilik, o'z vaqtida qayta aloqa yordamida talaba larning yuqori darajadagi motivatsiyalarini doimiy ravishda rag'batlantirish), xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish (egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olib, o'quv fani mazmuni hamda o'quv masalalari murakkablik darajasi talabalarning yosh imkoniyatlari va individual




xususiyatlariga mos kelishi, o'quv materialini o'zlashtirishda ortiqcha hishayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta'sirlanishdan himoyalash) kiradi.

Texnik talablarga zamonaviy universal shaxsiy kompyuterlar, tashqi qurilmalari, test o'tkaziladigan manbalar kiradi. Tarmoq talablariga "mijoz-server" arxitekturasi, Internet-navigatorlar, tarmoq o'rnatish tizimlari, telekommunikatsiya, boshqaruv vositalari (o'qitish jarayonini individual va jamoaviy ishlari, tashqi qayta aloqa) kiradi.

Estetik talablarga quyidagilar kiradi: tartiblilik va ifodalilik (elementlari, joylashishi, o'lchami, rangi), bezashning funktsional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi. Maxsus talablarga quyidagilar kiradi: interfaollik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqillik va moslashuvchanlik, audiolashtirish, ko'rgazmalilik, kirish nazorati, intellektual rivojlanish, differentsiatsiyalash (tabaqalashtirish), kreativlik, ochiqlik, qayta aloqa, funktsionalilik, ishonchlilik.

Ergonomik talablarga quyidagilar kiradi: do'stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish. Audio ta'limiy dasturiy vositalar – musiqa, audio nutqlar, audio yozuv va boshqalardan iborat bo'lgan resursdir. Audio nutqlar yordamida ma'ruzachi o'z his-tuyg'u, ohang va intonasiyalari orqali talabalarni e'tiborini jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Matnli va video kontent xususiyatlarini solishtiradigan bo'lsak, matn ham ayrim afzalliklarga ega: matnli kontentda video kontentdan farqli ravishda kerakli ma'lumotni topish uchun maqolani tezda "skanerlash" imkoniyatining mavjudligidir. Matnli kontentni samaradorligini oshirish uchun matn yaxshi tizimlashtirilgan, sarlavhalarga bo'lingan bo'lishi, ro'yxatlar va rasmlar (fotosuratlar, chizmalar, diagrammalar va boshqalar)dan iborat bo'lishi kerak.

Dasturiy vositalar yordamida ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishning tarkibiy asosini tashkil etuvchi elementlarni quyidagi jadvarda ko'rish mumkin:



Ta'kidlash joizki: tasvirlar matndan ko'ra yaxshiroq eslab qolinsada, tasvir va matn birgalikda faqatgina tasvirdan ko'ra ko'proq esda qolarli hisoblanadi. Infografikada grafika matn va izohlar bilan to'ldirilishi natijasida esda olib qolish xususiyatlarini oshiradi. Shu sababli, infografikadan foydalanish ko'lami ortib bormoqda.

Xulosalar

Hozirgi zamon dasturiy vositalar yordamida ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish har bir predmetni qiyinlik darajasiga ko'ra tanlashga, shuningdek, ularni o'zlarining qiziqishi va kasbiy rejalariga muvofiq holda o'rganishga imkon beradi. Bu hol ta'limda o'tmishdan saqlanib kelinayotgan eski qarashlarni o'zgartiradi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida fanlar orasidagi uzluksizlik va uzviylik to'liq ta'minlanishi orqali ta'lim oluvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini tarmoq va mutaxassisliklar malaka talablari darajasida to'liq shakllantirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar.

- 1.Рахмонова Д. Коммуникативная компетентность как основная цель обучения английскому языку как второму иностранному //in Library. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 168-172.



2.Rahmonova D. T. COMMUNICATIVE COMPETENCE AS THE MAIN GOAL OF TEACHING ENGLISH AS A SECOND FOREIGN LANGUAGE.

3.Toshmirzaevna R. D. XORIJIY TILDA MUSTAQIL FIKRLASHDA TARG‘IBOT VOSITASINING VAZIFALARI VA O‘RNI //International Conference. – 2024. – T. 1. – №. 9. – C. 33-35.

4.Toshmirzaevna R. D. ISHLAB CHIQARISH VA ISTE‘MOL DARAJASINING ORTISHI JARAYONIDA XORIJIY TILLARNING AHAMIYATI //International Conference. – 2024. – T. 1. – №. 9. – C. 36-40.

5. Rakhmonova D.T. Xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida ped texnologiyalar vositasida aralash ta‘limning afzalligi va ahamiyati//Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2024, 12-son

6. Rakhmonova D.T. The use of information technology with the development of the principle of individualization in English lessons//Asian journal of multidisciplinary research (AJMDR) - Vol.1 Issue 1, november 2024